

AN EXAMPLE OF PATRIOTISM AND DILIGENCE

Nazarova Zilola

*Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti “Rangtasvir (dastgohli)” magistratura mutahassisligi 2 - kurs*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O’zbekiston dagi tarixiy muzeylar va ularni hayotdagи о’rni, shuningdek ana shunday uyidan tarix muzeyi ochgan Davron aka Jo’rayevning hayoti va muzey ochishdagи qilingan barcha urinishlari , qolaversa bu insонning vatanparvarlik fidoiylik hislatlari va shu vaqtgacha erishgan yutug’lari to’g’risida so’z yuritiladi.*

**Аннотация:** В этой статье исторические музеи Узбекистана и их место в жизни, а также жизнь Даврона aka Джораева, открывшего музей истории из своего дома, и все усилия, приложенные для открытия музея, а также чувства патриотизма и самоотверженность этого человека и достижения, которых он достиг до сих пор.

**Annotation:** *In this article, historical museums in Uzbekistan and their place in life, as well as the life of Davron Jorayev, who opened a history museum from his house, and all the efforts made to open a museum, as well as the feelings of patriotism and selflessness of this person and the achievements he has achieved so far. is discussed.*

**Kalit so’zlar:** Milliy mafkura, tarix muzeylari, vatanparvar va fidoiylik, Bekabod tumani, Dalvarzin raboti, o’lkashunoslik muzeyi, Mastchoh tumani, Tojikiston respublikasi, Davron Jo’rayev.

**Ключевые слова:** Национальная идеология, музеи истории, патриотизм и благочестие, Бекабадский район, Далварзин работы, краеведческий музей, Мастчинский район, Республика Таджикистан, Даврон Джораев.

**Key words:** National ideology, history museums, patriotism and devotion, Bekabad district, Dalvarzin raboti, local history museum, Mastchoh district, Republic of Tajikistan, Davron Jorayev.

O’zbekiston , o’zbek millati ,uning milliy mafkurasi qadryat an’analari va madaniyati asrlar davomida to bugungi kunga qadar shakllanib sayqallanib kelmoqda. Buyuk bobo kalonlarimiz ajdodlarimizni vatan ravnaqi taraqqiyoti uchun bosib o’tgan yo’llari,jangu jadallarini,ijtimoiy madaniy meroslarini bugungi avlod aynan tarixiy muzeylarda ko’rishlari mumkin. Muzeylarda turli va turli xil davrlarga tegishli bo’lgan ko’plab ekspanatlar mavjuddir.Tarixsiz kelajak yoq degani kabi bunday muzeylar insonga nima beradi? El yurtning o’zligini vatanni vatani tarixi to’g’risida tasavvur tushuncha paydo bo’lishga qolaversa inson qalbida vatanga sevgi sadoqat his tuyg’ularini kamol toptirishga undaydi. Shuningdek tarixni anglashda uni kelajak avlodlarga qoldirishda muzeylar juda ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu boisdan O’zbekistonda 1990-yillardan keyin ko’plab muzeylar mamlakatning turli joylarida o’z ishlarini boshladi, ko’plab muzeylar butunlay

yangidan barpo etildi.. Parezidentimiz Toshkentdagi bonyodkorlik ishlari bilan tanishgan vaqtida Toshkent shahri muzeyini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar bergandi. Hozirda adiblar xiyoboni yonidagi bino rekonstruksiya qilinib, mazkur muzey shu yerga joylashtirilgan.

"Toshkent shahri muzeyi 2200 yillik tarixga ega bo'lgan hududning tarixi, urf-odat va an'analari, ilm-fani, madaniyati va san'atini o'zida aks ettirgan. Bu yerda mingga yaqin eksponatlar to'plangan. Eksponatlarga o'zbek, rus va ingliz tillaridagi matnlar bilan sharh beriladi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilmiy-tadqiqot instituti tashkil qilish, arxeologlarga sharoit yaratish, izlanishlar natijasi bo'yicha kitoblar chop etish zarurligi ta'kidlandi. Mahalla va maktab yosHLarini bu yerga olib kelish, boshqa shaharlarda ham shunday muzeylar tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Ma'lum qilinishicha, jahondagi mashhur muzeylar tajribasi asosida eksponatlarning ko'rimliligin oshirish, tarixiy ashyolarni bezarar saqlash, keluvchilarga qulayliklar yaratish bo'yicha hamma jihatlar inobatga olingen. Yana bir loyiha kelgusida davlat muzeylarini rekonstruksiya qilishga qaratilgan. Unga ko'ra, binolarning arxitekturasi va tarixiy qiymatini saqlab qolgan holda ichki sharoitlarini yaxshilash, zamonaviy texnikalar bilan jihozlash rejalashtirilgan. Negaki davlatimiz tasarrufidagi barcha muzeylar qaysidir ma'noda O'zbekistonning ko'rki hisoblanadi chunki uyerga ko'plab chet mamlakatlardan sayyoohlар tashrif buyurishadi va o'lkamiz tarixi bilan tanishib chiqishadi. Muzeylar ma'naviy yetuk, komil insonni tarbiyalashda o'ziga hos o'rinn tutadi. Yurtboshimiz takidlaganidek -\* "Har qanday mustaqil davlat mustahkam ma'naviy poydevorga ega bo'lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi"

Haqiqatdanham ma'naviy olami keng marifatli va vatanparvar insonlar yurtimizga kerak. Anashunday hislatlarga ega bo'lgan insonlardan biri Jo'rayev Davron aka 1947-yil 28-sentyabrda Toshkent viloyati Bekabod tumanida Hunarmand usta oilasida tug'ilgan. 1949 - yili otasi vafot etgandan so'ng ular oilaviy bir necha yillarga Tojikiston respublikasiga ko'chib ketishadi. Uyerda Mastchox tumani Bo'stonpasyo'lkasidagi 1- maktabda 1954-yildan to 1965-yilgacha ta'lim oldi. Bu inson maktab paytlaridanoq zukko ilimga chanqoq va intiluvchanligi bilan boshqa tengdoshlaridan ajralib turardi. 1966-yili Leninabod shahridagi pedagogika institutini tarix fakultetiga o'qishga kirib 1971-yili o'qishni tugatib shu yili 11-sonli 8 yillik maktabga pianer vajatiy bo'lib ishga kirdi. Uning eslashicha ustozи Sariqulov Qo'shnazardan ko'pgina bilimlar va o'qituvchilik mahoratlarini o'rgangan. 1999- yili Bekabod tumaniga qaytib uyerda 13-maktabga tarix o'qituvchisi bo'lib ishga kirdi. Qiziquvchan intiluvchan insonligi bois 20 yil maktabda ishlash jarayonida shogirdlari yordamida Bekabod tumani tarixi dior asori-atiqalarni to'plab o'lakashunoslik muzey tashkil qildi. Shogirdlari bilan arxialogik qazishma ishlari olib borib yer qaridan katta hum ko'zalar taqinchoqlar va ko'plab tangalarni topishga muvafaq bo'lgan. 1219-yilda Chingizxon qo'shinlari Xo'jandga yurish qiladi va Dalvarzin qishlog'i aholisi qo'shinlari qashqatgich zarbaga uchraydi so'ng Dalvarzin raboti yer bilan yakson etiladi. Davron aka olib borgan qazishma ishlari natijasida osha davrga tegishli bo'lgan mo'g'il o'q yoylari, kamon uchlari va mahalliy aholi jangchilarini kamon o'q uchlari ham topilishiga erishildi. Bu o'q yoylar

ekspertlar olimlar tomonidan haqiqatdan ham osha davrdagi mo'g'il o'q yoylari ekanligi tasdiqlandi. O'lakashunoslik to'garagi bora bora boyitilib o'lakashunoslik muzeyiga aylantirildi. U tarix o'qituchisi, uning bu asori atiqalarni yig'ishi to'plashi albatta uning sohasidan kelib chiqqan bo'lib bu qiziqishlari intilishlari uning qalbi va ongi shuriga singib ketgan. Bu inson bilan suhbatlashgan odam uning yuragidagi qalbidagi vantage el yurtga bologna cheksiz mehr muhabbati va sadoqatini his etishi shubxasiz. Qolaversa aynan buni Bekabod tumani tarixi haqida 45 yillik mehnat samarasi 3000 mingdan ortiq bo'lgan qadimiy asori atiqalar to'plamida ko'rish mumkin sababiki bunday mashaqatli insondan ulkan sabr va mehnat talab qiladigan ishni hamma ham uddasidan chiqavermaydi buning uchun brinchi navbatda salohiyat qiziqish va fidoiylik kerak bo'ladi. Uning Bekabod tarixi uy muzeyiga borgan odam uyerda nafaqat Bekabod tumaniga xos bo'lgan tarixiy buyumlar balki boshqa chet davlatlar bilan bog'liq bo'lgan ya'ni 200 ga yaqin davlatlarni tanga va muomiladagi pul birligini ko'rishi mumkin. Bundan tashqari u Bekabod tumanida yashab turli sohalarda faoliyat ko'rsatgan va korsatayotgan iqtidorli insonlarni hayot va ijodlari to'g'irisida kitoblar nashir etgan. Muzeyga kirgan har qanday o'zbek uyerdagisi muhitni turli ko'za buyumlaridan tortib to kiyimu taqinchoqlargacha bo'lgan asori atiqalarni ko'rib beixtiyor inson o'zligini o'zbek o'g'loni ekanligini yana bir kara his etadi. 1960 va 1970 - yillari ham sovet tuzimining murakkab va o'ta ziddiyatli yillarda o'zbek xalqi o'zligini qadimiy milliy madaniyati va qadryatlarini saqlab qolishga harakat qilardi lekin bu oson kechmasdi. Bu yo'lda o'ziga hos kurashlar va yo'qotishlar sodir bo'ldi. Kamunistik mafkura mahalliy xalqning milliy g'ururini sindirishga urindi. Xalqning ongida milliy mafkura tushunchasi yoqala boshlayotgan edi lekin osha davrda ham o'zini chuqur anglagan, ziyoli, ilg'or fikrlaydigan vatanparvar insonlar ham bor edi. O'shanday insonlar qatorida Davron Jo'rayev ham bo'lib bu fidoiy inson osha davrda ham o'zligini yo'qotmadi maddohlik qilmadi aksincha vatanini tarixini yoritib berishdek ulkan maqsadni oldiga qoydi va bu yo'lda davom etdi. Mana bir necha yildirki yoshlari yetimishdan oshgan bo'lsada lekin u hanuz shijoatli va doimo harakatda qolaversa yurtimizda sodir bo'layotgan hech qanday ishga befarq emas ayniqsa o'zi tug'ilib o'sgan Begabod tumani xalqi bilan qalban birga va hozirgi kunda uning asori atiqalarini bir necha joylardan so'rab kelishgan ular qancha yaxshi narx aytshmasin Davron aka o'zi to'plagan qadimiy asori atiqalarni sotishga ko'zi qiymagan sababi u to'plagan har bir buyum u uchun juda qadirli va har birini o'zini o'rni bor qolaversa u bu narsalarni kelajak yosh avlod o'lkamiz tarixini bilishi uchun asraydi.

Bu insonni qaysidir ma'noda ijodkor inson deb ham atash mumkin. Sababi ijodkor inson doimo izlanishda yo'q narsalardan hayotdan o'zligini borlig'ini topishga harakat qiladi va o'zligini namoyon etadi. Davron aka Jo'rayev ham bu asori atiqalarni yig'ishga butun umri va hayotini bag'ishladi yo'q narsalardan borlikni topdi, xilma xil joylarni kezdi, intildi, harakat qildi va erishdi. Inson maqsad qoyib intilganda albatta, uning shaxsiy harakteri ham ro'l o'ynaydi. Davron akaning oddiy samimiy va kamtar insonligi shuningdek mamanllikga ruju qoymaganligi bois ham bu insonga alloxni o'zi yordam bergan. Axir aytishadiku kamtarga kamol manmanga zavol buning isboti tariqasida esa Davron akani butun hayoti

davomida bosib o'tgan yo'li va erishgan yutug'larida ko'rish mumkin. Bu inson obro, e'tibor,yo qandaydir yuqori mansablarga erishishni ko'zlamadi aksincha yuragi tozaligi fidoiy va chinakam vatanparvar insonligi uchun ham shunday mashaqatli ishlarga qo'l urdi va bu fidoiyligi mehnatlari samarasi o'laroq Davron Jo'rayev o'z vaqtida oliv toifali o'qituvchi, xalq ta'lim a'llochisi va mehnat faxriysi medali sohibi bo'lgan. Qadimgi faylasuflardan biri Denis Didro shunday degan \*—"Aqli odam o'zining oldida mumkin bo'lgan cheksiz sohani ko'radi ahmoq esa faqat mumkin bo'lgan narsani o'ylaydi" darhaqiqat bu fidoiy inson ham bir joyda qotib qolmagan,doimo izlanishda, o'ziga juda ishonadi, hayotning har bir javhasidan va har bir lahzasidan ma'no mazmun axtaradi. Bugungi kunda uning tarix muzeyiga Bekabod tumanining turli maskanlaridan umum ta'lim maktabalaridan o'quvchilar kelib o'rganishadi va Davron aka bilan suhabat qurishadi. Davron aka o'zi to'plagan buyumlarni har birini kelib chiqishi qaysi davrga tegishli va qayerlardan topilganligini so'zlab beradi. Bu jafokash insonning ana shunday vatan ravnaqi yo'lida kelajak avlod uchun qoldirayotga madaniy va ma'naviy merosi shuningdek insonniylik hislatlarini bemalol vatanparvarlik va fidoiylik namunasi deb aytish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1 daryo. uz
- 2 peskiadmin. ru